

O‘ZBEK LUG‘ATSHUNOSLIGI TADQIQIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Ibrohimova Muxabbat Anvarjon qizi

O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti. Filologiya fakulteti.

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada lug‘atshunoslik tarixi, lug‘atlarning ahamiyati, hozirgi va qadimgi lug‘atlarning bir-biridan farq qiluvchi jihatlari va namunalari haqida ayrim ma’lumotlar berib o‘tiladi.

***Kalit so‘zlar:** lug‘atshunoslik, lug‘at, so‘z, Mahmud Koshg‘ariy, tarix, atama, ma’no, izoh.*

SOME REMARKS ON THE STUDY OF UZBEK LEXICOLOGY

Ibrohimova Mukhabbat Anvarjon qizi.

Uzbekistan -Finland Pedagogical Institute. Faculty of Philology.

First year of student of Uzbek language and literature.

ANNOTATION

This article provides some information about the history of lexicology, the importance of dictionaries, the differences and examples of modern and ancient dictionaries.

***Key words:** lexicology, dictionary, word, Mahmud Koshgari, history, term, meaning, explanation.*

Lug‘atshunoslik haqida gapirar ekanmiz, avvalo, "lug‘at nima?" degan savolga javob berishimiz lozim. Lug‘at - muayyan tilda, yo uning hudud yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi yoki

boshqacharoq ta'rif bersak, so'zlar muayyan tartibda joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi haqida ma'lumotlar jamlangan kitobdir. Shu xususiyatlariga qarab, imlo lug'atlari, izohli lug'atlar va tarjima lug'atlari bir-biridan farqlanadi. Lug'atlar ma'naviy, madaniy sohada muhim o'rinni egallaydi, chunki lug'atlarda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug'at bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: o'quvchiga muayyan voqea- hodisa haqida ma'lumot beradi, uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtiradi, tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam beradi.

Leksikologiyaning lug'atlar tuzish bilan shug'ullanadigan bo'limi leksikografiya deb nomlanadi.

Anatol Fransning yozishicha, "lug'at- alvafit tartibida joylashtirilgan voqelikdir". Bundan borliqdagi jamiki narsa, hodisa va voqealar har bir tilning lug'at boyligida aks etadi, degan ma'no kelib chiqadi.[1. 115]

Lug'atlar juda qadim davrlarda paydo bo'lgan va tilshunoslikning leksikografiya bo'limida bu haqda bir qancha ma'lumotlar o'rganilib kelinmoqda. Hozirgi davrda lug'atlar ma'lumot - axborot to'plash va uni o'quvchiga yetkazishda muayyan ahamiyatga ega.

Leksikografiya turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarda u yoki bu tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tiliga mansub) so'zning qanday ma'no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan. Dastlabki tuzilgan lug'atlar umumlashgan ya'ni universal xususiyatga ega bo'lgan, keyinchalik esa lug'atlarning bir nechta turlari paydo bo'lgan.

O'zbek leksikografiyasi tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit- turk" asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga u dastlabki ikki tili ya'ni turkiycha-arabcha lug'atlardandir.

"Devoni lug‘otit-turk" ning lug‘at qismida 7500 so‘z sakkiz bo‘limda izohlanadi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy -tarixiy metodning asoschilaridan biri bo‘lib qoldi. [2.68]

Eski o‘zbekcha -forscha lug‘atnavislik an‘analarining XVIII asrdagi ravnaqi Mirza Muhammad Mahdiyxon nomi bilan bog‘liq, lekin uning hayot yo‘li haqida ma‘lumot juda kam. Mirza Mahdiyxon Navoiy asarlariga bag‘ishlab o‘zining "Sangloh" lug‘atini tuzgan. Bu lug‘at Navoiy asarlari bo‘yicha eng katta lug‘at hisoblanadi.

Bulardan tashqari o‘nlab lug‘atlar bor: "Kitobi lug‘ati atrokiya", "Farhangi Hazrati Alisher muqallab ba al-Navoiy"[2. 69]. O‘zbek lug‘atchiligi tarixida XX asr alohida o‘rin tutadi. Bu davrda turli maqsadlarni ko‘zda tutgan ko‘plab terminalogik lug‘atlar, o‘quv va imlo lug‘atlari, ikki va uch tilli so‘zlashgichlar yaratildi. Bunda ayniqsa, ruscha -o‘zbekcha va o‘zbekcha- ruscha, shuningdek o‘zbek tilini boshqa yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab o‘rganishga mo‘ljallanganlari alohida o‘rin tutadi. Ularning eng muhimlari sifatida E.D. Polivanovning "Qisqacha ruscha - o‘zbekcha lug‘ati"(Toshkent, Moskva 1926), Ashurali Zohiriyning 2 jildli "Ruscha - o‘zbekcha mukammal lug‘ati" (34 ming so‘z, Toshkent, 1927- 3m28) kabi lug‘atlarni keltirishimiz mumkin.*[2. 70]

Lug‘atshunoslik haqida gapirar ekanmiz, yana mumtoz adabiyotga qaytamiz. Mumtoz adabiyotda Zamaxshariy, Navoiy asarlari lug‘atlarning eng sara namunalarini uchratishimiz mumkin. Mahmud Zamaxshariy o‘zining "Asos ul- balog‘a", "Muqaddimat ul -adab" asarlari bilan ham amaliy, ham nazariy leksikografiyaning rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Hazrat Alisher Navoiy XV - XVI asrlarda o‘zining 2 jildli qomusiy lug‘atini yaratdi. Bundan tashqari uning yana bir lug‘atshunoslikka oid asari 1499-yilda yaratilgan "Muhokamat ul-lug‘atayn"asaridir. Mazkur asarda Navoiy qiyoslash asnosida turkiy tilning boy va keng imkoniyatlarga egaligini isbotladi. Yana bir asari " Sab'atul- abhur" ("Yetti dengiz") - Alisher Navoiyning arabshunoslik, xususan, arab

leksikografiyasida yaratgan yirik ishidir. Lugʻatda klassik arab tilidagi soʻzlar arab tilida izohlanadi.

Shunday ekan, tilshunoslikda lugʻat sathi muhim ahamiyatga ega, chunki lugʻat sathi boshqa til sathlarining shakllanishi uchun asos hisoblanadi. Lugʻat sathi oʻzgaruvchidir, yaʼni vaqt oʻtishi bilan ayrim soʻzlar eskirib istorizmga aylanadi. Shu bilan birga boshqa tillardan soʻz olish yoki qoʻshimchalar qoʻshish natijasida yangi soʻzlar - neologizmlar paydo boʻladi. Shu yoʻl bilan lugʻat sathi boyib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Irisqulov M.T . Tilshunoslik kirish (oʻquv qoʻllanma). -T.: Oʻqituvchi. 1992.
2. A. Omonturdiyev, Oʻ.Xoliyorov, G. Qorjovova. Zamonaviy oʻzbek leksikografiyasi. Termiz. 2016